

**YASHASH MUHITI VA ASOSIY EKOLOGIK OMILLAR TASNIFI****Ikromova Shaxriniso Nizomiddin qizi****Adashboyeva Madina Islombek qizi****Andijon davlat pedagogika instituti****Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti****Biologiya yo'nalishi ( kechki) 2- bosqich 201- guruh talabalari****Usmonov Dilmurod Dolimovich****Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19479485>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ekologik omillar ya'ni abiotik, biotik va antropogen omillarning tabiatga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** abiotik, biotik, antropogen, fitogen, zoogen, mikrobiogen, termofil, kriofil, orografik, edafogen,

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о факторах окружающей среды, т.е. влиянии абиотических биотических и антропогенных факторов на природу.

**Ключевые слова:** абиотический, биотический, антропогенный, фитогенный, зоогенный, микробиогенный, термофильный, криофильный, орографический, эдафогенный,

**Абстракт:** This article presents information about environmental factors, i.e. abiotic biotic and anthropogenic factors impact on nature.

**Key words:** abiotic, biotic, anthropogenic, phytogenic, zoogenic, microbiogenic, thermophilic, cryophilic, orographic, edaphogenic,

Ekologiya- biologiya fanlari qatoridagi mustaqil fan hisoblanadi. Ekologiya tushunchasi fanga birinchi bo'lib, 1866-yilda nemis biologi E.Gekkel tomonidan kiritilgan. Ekologiya - "yunoncha" so'z bo'lib, uning ma'nosi tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini bildiradi. Umumiy ekologiya to'rt bo'linga bo'lib o'rganiladi: autekologiya, populyatsiyalar ekologiyasi, sinekologiya va biosfera.

**1. Autekologiya** - ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o'zaro munosabatini, turarning qanday muhitga ko'proq va uzviy moslashganligini o'rganadi.

**2. Populyatsiyalar** ekologiyasi - populyatsiyalar tuzilmasi va dinamikasi, ma'lum sharoitda turli organizmlar sonining o'zgarishi (biomassa dinamikasi) sabablarini tekshiradi.

**3. Sinekologiya**-biogeotsenozning tuzilishi va xossalarini, ayrim o'simlik va hayvon turlarining o'zaro aloqasini hamda ularning tashqi muhit bilan munosabatini o'rganadi.

**4. Biosfera.** Ushbu ta'limotning asoschisi V.I.Venadskiy hisoblanadi. Sayyoramizda tarqalgan organizmlar, ya'ni yer qobigidagi mavjudotlar tizimi biosfera deb ataladi.

Bugungi kunga kelib, ekologiya sof biologik fanlar tizimidan chiqib, mazmuni kengayib bormoqda. Atrof-muhitga zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining ta'siri natijasida ekologiya tushunchasi juda kengayib ketdi. Fanga —inson ekologiyasi degan atama ham kirib keldi. Insonni tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. Inson ekologiyasi yangi fan sifatida 1921-yil amerikalik olimlar Borjes va Parklar tomonidan kiritildi. Dastlab inson ekologiyasiga tibbiy soha bo'limi sifatida qaralib, keyinchalik uning ijtimoiy, texnik, me'moriy, iqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o'rganildi. Inson ekologiyasi insonni atrof-muhitga va aksincha, muhitning insonga ta'sirini o'rganadi. Ekologik omillar — atrof muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlari va elementlari

majmui. Ekologik omillar 2 katta guruh — abiotik va biotik omillarga bo‘linadi. Ekologiyada „cheklovchi omillar“ tushunchasi ham mavjud, ular tarkibiga organizmlar mavjudligi va rivojlanishini cheklovchi har qanday omilni kiritish mumkin. Tirik organizmlarga ta‘sir etuvchi muhitning har qanday bo‘laklari ekologik omillar deyiladi. Ekologik omillar tirik organizmlarga turlicha ta‘sir o‘tkazadi, yani:

1. Ayrim turlarni ma‘lum hududdan siqib chiqaradi va ularni geografik jihatdan tarqalishining o‘zgarishiga olib keladi.

2. Har xil turlarning rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qilib, ularning ko‘payishi va o‘lishini o‘zgartiradi, bir joydan ikkinchi joyga migratsiya qilib, populyatsiya va biotsenozlar qalinligiga ta‘sir qiladi;

3. Organizmlarda moslashish xislatlarini keltirib chiqaradi, ularda ichki va tashqi o‘zgarishlarni sochilib, guruh bo‘lib tarqalishi, qishki va yozgi tinchlik davri, fotoperiod reaksiyalar va boshqalar sodir bo‘ladi;

Muhit omillari vaqt bo‘yicha xam o‘zgarib turadi: **a)** Kun davomida yoki yilning fasllari bo‘yicha, dengiz, okeanlarning to‘lqinlarini ta‘sirida muntazam o‘zgarib turishi; **b)** Ekologik omillarning kutilmaganda, muntazam bo‘lmagan holda o‘zgarishi aniq davrlar ichida bo‘lmasligi, har xil yillarda ob-havoning o‘zgarishi, tabiiy ofatlar - dovul, kuchli bo‘ron, suv bosishi, sel kelishi, yer silkinishlari, vulqonlar ta‘sirida bo‘ladi; **d)** Ma‘lum vaqt yoki uzoq davr ichida bo‘ladigan o‘zgarishlar. Bu holatlar - tabiiy muhit iqlimining isib yoki sovib ketishi, doimiy mol boqish natijasida o‘tloqzorlarning tabiiy holati buzilishi, daryo etaklaridagi toqayzorlar, ko‘llarning suvsizlikdan yo‘qolib ketishi, ekologik omillar o‘zgarishidir.

**XULOSA.** Yashash muhiti quruqlik, suv, havo va yer osti qismlaridan iborat. Tashqi muhit tushunchasidan tashqari yashash sharoitlari degan tushuncha ham mavjud bo‘lib, bu tushunchaga organizmning yashashi uchun zarur bo‘lgan elementlar yoki omillardan yorug‘lik, issiqlik, suv, oziqlanish va shu kabilar kiradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. A.Ergashev, M.T.Yulchiyeva, O‘.A.Ahmedov, A.A.Abzalov, Ekologiya. Toshkent-2018
2. [www.ziyo.uz.com](http://www.ziyo.uz.com) kutubxonasi
3. A.Ergashev, T.Ergashev "Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish", "Yangi asr avlodi", 2005-yil.
4. D.Yormatova. Ekologiya. -T.: «Fan va texnologiya», 2012, 256 bet
5. Ekologiya / darslik: Z.M.Sattorov.T.: «Sanostandart» nashriyoti, 2018-yil. 360 bet.
6. P.S.Sultonov Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining «M usiqa» nashriyoti, 2007-y.